



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

Muxabbat Samidjonova

Namangan viloyat XTXQTMOHM o'qituvchisi

OLIY TA'LIMDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA PEDAGOGIK AMALIYOTNING AHAMIYATI

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'limda bo'lajak o'qituvchi - tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda pedagogik amaliyotning ahamiyatiga doir masalalar ochib berilgan.

Kalit so'zlar: kasb, kasbiy faoliyat, kasbiy axloq, pedagogik amaliyot, pedagogik kasb

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining "Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" bo'yicha uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Hozirgi kunda mustaqil davlatimizning yagona maqsadi insonparvar, demokratik-huquqiy jamiyatni barpo etish, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy rivojlanishning yuqori bosqichlariga ko'tarish, jahon hamjamiyati safidan munosib o'rin egallashga yo'naltirilgan ezgu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu maqsadlarni ijobiy natijaga ega bo'lishi, eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilimlar asoslarini puxta o'rgatish, ularda keng dunyoqarash hamda tafakkur ko'lamini hosil qilish, ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish borasidagi ta'limiy-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishga bog'liqdir. Zero yurtning porloq istiqbolini yaratish, uning nomini keng yoyish, ulug' ajdodlar tomonidan yaratilgan milliy-madaniy merosni jamiyatga namoyish etish, mustaqil Respublikamizning rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy egallashini ta'minlash yosh avlodni komil inson va malakali mutaxassis qilib tarbiyalashga bog'liqdir.

Ijtimoiy hayotning turli sohalarida faoliyat ko'rsatayotgan kasb egalarining o'ziga xos kasbiy qonun-qoidalarini bilishi va ularga amal qilgan holda faoliyat yuritishini ta'minlashda bo'lajak mutaxasislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashga e'tibor qaratilishi lozimligini belgilaydi.

Pedagogika fanidan izohli lug'atda "**kasb**" terminiga quyidagicha izoh berilgan "**Kasb** maxsus tayorgarlik va ish tajribasi natijasida ma'lum bir sohada kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun nazariy bilimlar majmuasini, amaliy ko'nikma va malakalarni egallagan, uni jismoniy imkoniyat, aqliy qobiliyat va yuridik xuquqlarini ta'minlovchi insoniy faoliyatning turidir". [1.211-213-b]

Kasb tanlash va kasbiy faoliyatni shakllantirishga oid masalalar bir qancha pedagog olimlarnin ilmiy-tadqiqot ishlarida yoritilgan. Jumladan; Pedagog X.Abdukarimov o'zining asarida tarbiyachilik kasbining mohiyatini asoslab, "tarbiyachilikdan ustun turadigan, tarbiyachini o'rnini bosa oladigan kasb sohibi bo'lmasa kerak" – degan fikrni beradi. [2.30-b]

Professor J.Xasanboev bo'lajak mutaxasislarni tayyorlashda kasbiy faoliyatga e'tibor qaratadi va kasbiy faoliyatga quyidagicha ta'rif beradi: -**Kasbiy** funktsiya-tegishli o'quv muassalarining bitiruvchisiga tegishli bo'lib, shaxsning hayotda egallagan sohasida faoliyat ko'rsata olish, o'z kasbi doirasida bilimlarini o'zlashtirish va ularni og'ishmay amalda joriy eta olish faoliyatidir

Profssor M.Ochilov o'zining "O'qituvchi odobi" asarida "Faoliyatning ma'lum bir sohasi bilan shug'ullanuvchi kishilarga taalluqli axloqiy normalar va talablar ham bor bunday axloq **kasb** (professional) axloq deyiladi, " degan fikrlarni beradi. Olim bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash zarurligini ta'kidlaydi. [3.6-b]

Pedagog olim A.Xoliqov o'z tadqiqotida o'qituvchilik kasbi mazmun mohiyatini asoslab "Pedagogik kasb - bu komil inson sifatida harakatlantiruvchi ijtimoiy ahamiyatga molik fazilatlarining barqaror tizimidir" degan fikrni beradi.[4-24-b]

Olim B.X.Raximov o'z tadqiqotida bo'lajak tarbiyachi va o'qituvchilarni kasbiy madaniy munosabatlarini tadqiq etgan. Uni fikricha: "Kasbiy madaniy munosabatlar shaxslararo amal qiladigan, ijobiy munosabatlar yechimiga erishishda

asosiy vosita, vazifasini bajaradi va shaxs faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiladi.”[5.10-b]

Pedagogika fanlari nomzodi X.Abdukarimov o‘zining ilmiy tadqiqotini bo‘lajak tarbiyachilar tanlagan kasbga nisbatan axloqiy munosabatlarni shakllantirish muammosini hal etishga qaratgan va bo‘lajak pedagogda quyidagi axloqiy sifatlar mujassam bo‘lishi kerakligini ta’kidlagan:

- “Bolalarni sevishi;
- O‘z kasbiga sadoqatli bo‘lish;
- Nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiiq eta olishini;”

Yuqorida ko‘rsatilgan ilmiy-metodik tadqiqot yo‘nalishlari bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash mazmuniga ham bog‘liq.

Oliy ta‘lim muassasasi talabalarining shaxsiy rivojlanishi, ular ijtimoiy-shaxsiy qiziqishlarining kasbga yo‘nalganligi, mustaqil fikrlashlari, ijodkorliklari, faolliklari, dunyoqarashlarining turg‘unlashuvi va o‘z-o‘zini tarbiyalashga bo‘lgan ehtiyojlarini shakllanishi kabi holatlar bilan tavsiflanadi. Bo‘lajak tarbiyachi mutaxassis uchun oliy ta‘lim muassasasida ta‘lim olish jarayoni – pedagogik faoliyatni muvafaqqiyatli amalga oshirishda kasbiy jihatdan ahamiyatli sanalgan sifat, bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish va o‘z-o‘zini takomillashtirishning maqbul davridir. Talaba ushbu jarayonda bilimlarni jamlash, saqlash, uzatish, ularning mantiqiy tuzilmasini yaratish va kelajakda o‘z faoliyatini tashkil etishda ularni samarali qo‘llash yo‘llarini o‘rganish kabi holatlarni o‘zida mujassam ettiradi.

Bo‘lajak pedagoglarni kasbga tayyorlashda pedagogik amaliyotning roli salmoqlidir. Zero, olingan nazariy bilimlar amaliyotda takomillashadi va mutaxassislik malakasining shakllanishiga zamin yaratadi.

Bunda asosiy e‘tibor quyidagilarga qaratiladi:

- mustaqillik mahsuli bo‘lgan xalq ta‘limi tizimidagi ta‘lim muassasalaridagi ta‘lim-tarbiya jarayonining takomillashuv jarayonini o‘rgatish;
- milliy g‘oya va milliy mafkurani, Konstitutsiya saboqlarini har bir mashg‘ulot jarayoniga tatbiq etish metodlarini o‘rgatish;
- ta‘lim jarayonini yangi didaktik talablar asosida tashkil etishni dolzarb tadqiqotlarga tayangan holda, tajribalar misolida ko‘rsatish;
- pedagogik amaliyot jarayonida talabalarining mustaqil faoliyatini ta‘minlash;
- tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish va ota-onalar bilan ishlash mahoratini amaliyotda kuzatish va tahlil qilishga o‘rgatish;
- tarbiyachiga xos bo‘lgan kasbiy va shaxsiy sifatlarni shakllantirish;
- muassasa huquqiy-me‘yoriy hujjatlarini tartibli tayyorlash malakasini tarbiyalashga e‘tibor berish .

Bo‘lajak pedagoglarga ta‘lim-tarbiya berishning murakkab tomonlarini hal qilishda avvalo g‘oyaviy e‘tiqodga, kasb-mahoratiga, is‘tedod va muomala madaniyatiga ega bo‘lishlarini ta‘minlash birinchi bosqichdan boshlab pedagogika, psixologiya fanlarini o‘qitish orqali amalga oshiriladi.

Respublikamizda bugungi kunda oliy ta'limda pedagogik xodimlarni tayyorlashga katta e'tibor qaratilib, ta'lim tizimi bo'yicha faoliyat yurita olish qobiliyatiga ega bo'lgan xodimlarni tayyorlash masalasi dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Albatta bunday kadrlarni tayyorlashda pedagogik amaliyot muhim kasb etadi. Pedagogik amaliyot davrida:

- bo'lajak pedagog o'zi tanlagan kasbni e'zozlash va unga sodiq qolishning mazmun va mohiyatini anglab yetishi;
- milliy tarbiyachilik xarakterining pedagogik-psixologik asoslariga amal qilishi;
- bo'lajak pedagog mutaxassisligiga xos bo'lgan bilim, ko'nikma va malaka majmuasiga ega bo'lishi;
- bo'lajak pedagog ning ta'limiy va tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etish mahoratiga ega bo'lishi hamda ularni didaktik asoslarini chuqur o'zlashtirib, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq eta olishi;
- ta'lim-tarbiya jarayonini milliyashtirishda umuminsoniy qadriyatlar bilan boyitish hamda bolalarni milliy istiqloq g'oyasi ruhida tarbiyalash va erkin, mustaqil fikrlay oladigan pedagogik vaziyatni yaratish kabi nazariy bilimlarini mustahkamlashga e'tibor qaratiladi.

Maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi pedagogik amaliyotni tashkil etishda quyidagi vazifalarni hal etish muhimdir.

- Tarbiyachilik kasbiga davlat tomonidan quyilgan me'yoriy hujjatlarni chuqur o'rganish.
- Pedagogik amaliyotni o'tkazadigan maktabgacha ta'lim muassasalari.
- Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning umumiy rivojlanishini kuzatish va o'rganish.

Pedagogik amaliyot oliy ta'lim didaktikasini amaliyotda qo'llash, sinab ko'rish va samaradorlik ko'rsatkichlarini o'rganishga xizmat qiladigan ta'lim shakllaridan biridir. Bo'lajak tarbiyachi o'qituvchilarni barkamol avlodni tarbiyasiga layoqatli kasb egasi qilib shakllantirishda oliy ta'lim muassalarida tashkil etiladigan uzluksiz, malakaviy pedagogik amaliyot muhim kasbiy faoliyatni mustahkamlovchi o'quv tarbiya jarayoni hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Pedagogika fanidan izohli lug'at. T.: 2009-210-211-212-213 bet.
2. X. Abdukarimov. Professionalnoe vospitaniya lichnosti uchitelya v protsesse neprerivnogo pedagogicheskogo obrazovaniya. M.: - 1998 – 30 st
3. Ochilov M, Ochilova N. O'qituvchi odobi. T.: O'qituvchi. 1997-6 bet.
4. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. T.: Iqtisod-moliya. 2010-24 b.
5. Raximov B.X. Bo'lajak o'qituvchida kasbiy madaniy munosabatlarini shakllantirish tizimi. T.: Fan. 2005-10b.